



TIIAME

2-bosqich 1-semestr
3-mavzu: So‘z birikmasi. Tobe
bog‘lanish

Ona tili

Abdukadirova M.M.



TILAME

Reja:

1. Tobe bog‘lanish xususiyati.
2. Tobe va hokim bo‘laklar munosabati.
3. So‘z birikmasi va qo‘shma so‘z.
4. So‘z birikmasi va turg‘un bog‘lama (ibora).



So'z birikmasi





TILAME

**So‘z birikmasi ifodalanayotgan hodisani
boshqalaridan ajratib, aniqroq izohlab beradi:
o‘quvchi- so‘z (umumiyl),
a‘lochi o‘quvchi- so‘z birikmaci (xususiy)**



TIIAME

- Bir bo‘lakning boshqa bo‘lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo‘shimchalari, ko‘makchilar va so‘z tartibi va ohang yordamida bog‘lanishiga tobe bog‘lanish deyiladi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, bir so‘z ikkinchi so‘zning, turli xil belgilarini ifodalab, aniqlab unga bog‘lanib keladi. Ana shu turli belgilarni aniqlash uchun berilgan savol belgiga egalik qiluvchi so‘zga bog‘lanadi. Masalan, ***qanday odam?*** Xushmuomala odam. ***Qanday (qanaqa, qaysi) uy?*** Baland uy. Nimani o‘qidim? **Kitobni o‘qidim.**



TILAME

Tobe bog‘lanish doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi: tobe bo‘lak va hokim bo‘lak. So‘roq bog‘lanib kelgan qism hokim, so‘roqqa javob bo‘lib keluvchi qism tobe bo‘lak sanaladi.

Masalan, chiroyli (qanday?) ko‘ylak, go‘zal (qanday?) mamlakat; dalaga (qayerga?) bormoq.



So'z birikmasi





TILAME

SO‘Z BIRIKMASI

BOSH SO‘Z

-*So‘z birikmasida
ma‘nosi
izohlanayotgan so‘z*

*baland bino, bolday shirin, yozib
bo‘ldi*

ERGASH SO‘Z

-*Bosh so‘zning ma‘nosini
izohlayotgan,
to‘ldirayotgan, ochib
berayotgan, so‘z:*

*yashil bayroq, Hamidning
akasi.*



SO‘Z BIRIKMASI

-

Otli
birikma

Fe'lli
birikma

*Bosh so‘z, ot, sifat, son,
olmosh yoki harakat nomi
bilan ifodalanadi:
yaxshi o‘qish,
tobe bog‘lanish,
ko‘rkam shahar*

*Bosh so‘z fe'l va uning,
ravishdosh sifatdosh shakllari
bilan ifodalanadi:
o‘qigan bola, yoza-yoza
charchadi*



TILAME

SO‘Z BIRIKMASI

Sodda birikma
*Ikki mustaqil
so‘zdan:*


*beshta daftар,
toshdan qattiq,
kuzgi bug‘doy,
aqlning ko‘zi.*

Murakkab birikma -
*uchta va undan ortiq
mustaqil so‘zdan iborat
bo‘ladi:*

*so‘zi shirin , horib-
charchab
kelish, zavq bilan
kulish...*

SO'Z BIRIKMASI VA SO'Z

So'z birikmalari ham so'zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so'z – **leksik hodisa**, so'z birikmasi – **grammatik hodisa**. So'z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.



SO'Z BIRIKMASI VA QO'SHMA SO'Z

So'z birikmasida ham, qo'shma so'zda ham qismlar bir xildagi so'z turkumlariga oid bo'lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, ***oq qush – oqqush*** (har ikkalasida ham sifat+ot), ***suv ilon – suvilon*** (ot+ot). Bu ularning shakliy o'xshashligidir. Lekin so'z birikmasida qismlar ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi. Qo'shma so'z tarkibidagi qismlarning ma'nosi esa saqlanmagan bo'lib, qo'shma so'zning umumiyligi ma'nosi orqali ifodalanadi.



SO'Z BIRIKMASI VA TURG'UN BOG'LAMA

- So'z birikmasida so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'ladi: tushuncha anglatadi, turg'un bog'lanma (ibora)larda esa so'zlar ma'noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo'ladi va bir leksik ma'no anglatadi.
- Turg'un bog'lama (ibora)ga bir so'z sifatida qaraladi, lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so'zlar kabi ma'no ifodalaydi. Masalan, ko'zini yog' bosgan – "mag'rurlangan", yog' tushsa yalaguday iborasi – "toza", to'nini teskari kiyib olmoq iborasi – "qaysarlik qilmoq" ma'nosini beradi, ammo bu ma'nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.



TIIAME

Mashq. Tubandagi so‘zlar yordamida so‘z birikmalari tuzing. So‘z birikmasidagi so‘zlarning qanday vosita orqali munosabatga kirishganini tushuntiring.

Go‘zallik, qodir, din, she’riyat, rassom, hayot, mehribon, qahramon, insoniy, ijodkor, istak, ayol, xurofot, ruh, san’at, surat, musavvir, nafosat, ezgulik, mashhur, mukofot, davr, qalb, tuyg‘u, mavhum, dala, da’vat, pok, o‘lmas, ko‘z, nogoh, ishonuvchan, shaxs.



TILAME

Mavzuga oid test savollari.

1. Qaysi birikmalarda tobe so‘z sifat bilan ifodalangan?

- A. ishonchli do‘s, oq kabutar, qizargan olma
- B. do‘stona munosabat, g‘oyat qiziqarli, o‘zbekcha nutq
- C. hovlining o‘rtasi, qushning qanoti, do‘stimning maktubi
- D. qiziqarli suhbat, beqiyos o‘lka, katta qishloq

2. Husan esa tabiatan tirishqoq va dadil ekan. U qunt bilan ishlabdi, xayotni diqqat bilan o‘rganibdi, oqilona harakat qilibdi. Ushbu matndagi aniqlovchili birikmalarni hosil qiluvchi tobe so‘zlar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A. tirishqoq, dadil
- B. qunt bilan, diqqat bilan, oqilona
- C. A va B
- D. to‘g‘ri javob berilmagan.



- 3.Bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan so‘z birikmaisni toping.
 - A.bolalar haqida g‘amxo‘rlik
 - B. maktab hovlisi
 - C. qaytadan yozmoq
 - D. gapirishga oson
 - E. mahalla bolalari
- 4.Bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan so‘z birikmaisni toping.
 - A. bolalar haqida g‘amxo‘rlik
 - B. maktab hovlisi
 - C. qaytadan yozmoq
 - D. gapirishga oson
 - E. mahalla bolalari



TIIAME

Uyga vazifa: Matnni o‘qing, birikmalarni aniqlab, otli birikmalarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

- G‘iyosiddin Jamshidning aytishicha, uning otasi «Qur’oni Karim»ning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlar va mufassirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlida saqlaydilar va yoddan aytadilar... Arab tilining nahv va sarfini yaxshi biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishim fiqhdan ancha xabardorlar: mantiq, ma’nolarning bayoni va usullaridan ham xabardorlar.
- U kishim riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kun otda ketayotib, 818-yil rajab oyining o‘ninchisi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15—20-sentabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni istadilar. Shunga ko‘ra, otda ketayotib, xayoliy hisob-kitob bilan quyosh taqvimi (o‘sha kuni) bir daraja va ikki daqiqa ekanligini toptilar. Keyin otdan tushgach (hisob to‘g‘riligini) bu bandayi bechoradan so‘rab, aniqlab oldilar.